



COLLECTION OF MATERIALS OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE APPROACH OF CULTURAL STUDIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS



OCTOBER 19-20, 2023



MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY NAMED AFTER NIZAMI
UZBEKISTAN SCIENTIFIC RESEARCH INSTITUTE OF PEDAGOGICAL SCIENCES
OF NAMED AFTER T.N.KARI NIYAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL SCIENCE AND INNOVATION



COLLECTION OF MATERIALS
FROM THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
“STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF
FUTURE TEACHERS BASED ON A CULTURAL APPROACH: PROBLEMS AND
SOLUTIONS”
October 19-20, 2023

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
“СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО
ПОДХОДА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ”
19-20 октября 2023 г.

“MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK
O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLAR TO‘PLAMI
2023-yil 19-20-oktabr

MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNI MA'NAVIY TARBIYALARSHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Nozira Musinova

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10004225>

Milliy qadriyatlar demokratik milliy hayotda, shu jumladan milliy madaniyat va iqtisodiy faoliyatda jamoatga manfaat keltirgan, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan aholi yoki milliy guruhlarining umumiy qiymatlari, ma'naviy ishlari, iqtisodiyot, zamonaviy ma'naviy faoliyatlari hamda boshqa milliy xususiyatlari belgilangan. Bu qadriyatlar har bir mamlakat yoki jamoatning xususiyatlari, tarixi, tadqiqot va tashabbuskorliklariga asoslanadi. Milliy qadriyatlar iqtisodiy hamda siyosiy hayotda keng qo'llaniladi. Ular milliy tarjimonlik, milliy sport, milliy iste'mol va boshqa milliy san'atlar, ishlab chiqarish texnologiyasi, milliy turizm kabi yo'nalishlarda o'z aksini namoyon etadi.

Madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida o'quvchi shaxsini oilada tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish, milliy muhitni mustahkamlashni ta'minlash, tarixiy va madaniy dunyoga qadar bo'lgan milliy boshqaruvning asoslarini anglash bugungi kun yoshlari uchun jud muhimdir.

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinxor-bazinxor yo'l qo'ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar. Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Chunonchi, Qur'oni karim oyatlari mazmuni, Payg'ambar alayhissalom hadislar, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan.

Ota-ona nomiga sazovor bo'lgan shaxs borki, dinimizda ular ehtiromga loyiq zotlar sifatida qadrlanadi. Odamzod dunyoga kelibdiki, mudom mukammal timsol axtaradi, komillikka intilib, ruhiy najot yo'lini qidiradi. Shu orzu-intilish samarasi o'laroq, ma'naviyat bobida beqiyos kashfiyotlar qilingan.

Inson koinotdagi barcha mavjudotlar ichida hammadan ulug'i hisoblanadi. Uning kamoloti oldida aql hayron qoladi, chunki, inson haqiqat haqida chuqur o'ylaydi. Kamolot yo'lga chiqish uchun u asta-sekin o'zligini izlaydi, olimni tanlaydi. Kishi o'zini xirs-ta'ma, nafs, g'aflat, nodonlik singari mayllardan poklamsa, hech payt komil bo'la olmaydi. Navoiy o'z davrida komil insonlarni «ahli ma'ni» deb bilgan. «Ahli ma'ni» bu fikrli odamlardir. Fikrsiz xaloyiqning ongida ma'ni chuqurligi bo'lmaydi. Fikrlash – haqiqatni anglashdir. «Ahli ma'ni» deganda oqil va dono, kamtar va olijanob, haqiqatparvar va va fidoiy kishilarni tushunish kerak. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilarning tafakkuri keng bo'ladi.

Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne'mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o'zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob-mashaqqatni, har qanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham aql ne'mati bilan yengadi va hal etadi. Ruhiy kamolat odam qalbida ezgulikning yuksak koshonasini yaratadi. Aql-zakovatning kamoli o'qish, o'rganish, tahlil etish, idora qilish, e'tiqod qo'yish, hayot tajribasini egallash bilan ro'yobga chiqadi. Yosh

niholning basavlat daraxtga aylanishi parvarishga bog'lik bo'lganidek, odam bolasining komil inson bo'lib yetishishi uchun uni murg'aqlikdan tarbiyalashga e'tibor berib borish lozim.

Ma'lumki, bolani layoqatga mos holda o'stirish uchun unda yoshlikdan mehnatsevarlik va ishchanlik ko'nikmasini hosil qilish kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlaridir. Garchand inson kamolatiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham lekin, maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi.

Shaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas'uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Bulardan tashqari shaxsni kamolga yetishda uning barkamol inson bo'lib yetishishida nafosat tarbiyasi, axloq-odob tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiyalarning o'rni va roli beqiyosdir. Chunki bu tarbiya usullari birgalikda amalga oshirilsa biz yoshlar ertangi O'zbekiston bunyodkorlari avvalambor, soglom bo'lishimiz, sport bilan shug'ullanishimizni har kungi faoliyatga aylantirishimiz kerak. Shunday ekan biz yoshlar, bo'lg'usi pedagoglar avvalambor o'zimiz har tomonlama yetuk, kamolga yetishishimiz, bilim va malakaga ega bo'lish uchun qunt bilan o'qishimiz darkor. Yangi pedagogik texnologiyalar hamda ularning qo'llanilishiga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmog'imiz lozim. Bunda mavzuga mos pedagogik texnologiyani tanlash, ularni qo'llashda oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga amal qilish muhim hisoblanadi. Yoshlar ertangi kunning bunyodkorlari kelajak avlodni tarbiyalash, o'qitishdek ma'suliyatli va sharaflil ishga qo'l urarkanmiz, hozirdanoq o'z bilimimizni oshirishimiz, berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz darkor.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida o'quvchi shaxsini oilada tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni beqiyos bo'lib, farzand tarbiyasi, farzandning barkamol bo'lishida oilaning boshqa ijtimoiy maskanlardan farq qiladigan jihatlarini doimo bilishimiz va yodda tutishimiz zarur. Oilada yoshlar tarbiyasini olib borishda o'ziga xos qoidalar mavjud bo'lib, oilada ota-onalar, farzandlar va boshqa a'zolari bir-birlarini tushunishlari, hurmat qilishlari; o'qishni, ishni, mehnatni asosiy ehtiyoj sifatida qarashlari; bekorchilik, dangasalikka berilmaslik; oilada qat'iy kun tartibi va rejimga rioya qilish; oilada katta kishilarni hurmat qilish va kichiklarni izzat qilish; oilada psixologik xotirjamlik, sog'lom muhit yaratish; oilaning har bir kishisida mustaqillik, erkinlik, o'ziga ishonch kabi xislatlarni shakllantirish kabi qoidalarni ota-onalar bilishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Gulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatning asosi. – Toshkent: Adolat, 2003. – 325 b. 10. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
2. Zritneva YE.I. Semyevedeniye / YE.I. Zritneva, N.P. Klushina. - M.:VLADOS, 2006.-246 s.
3. Axrorova Sh.U. O'zbekistonning ijtimoiy siyosatidagi milliy qadriyatlar aspekti //Nazariy jurnal «Credonew» 2013. <http://credonew.ru/content/view/1284/68>.

Mundarija

1	Р.Х.Джуроев , КУЛЬТУРОСООБРАЗНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	7
2	Ли Сёнг Хён , ПЯТИМЕРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ, СПОСОБСТВУЮЩЕЕ РАЗВИТИЮ СПОСОБНОСТИ ВОСПРИЯТИЯ	11
3	М.О. Исакова, К.М. Туленбаева , МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ СТУДЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	15
4	Шамир Мондошов, Мусабек Сатыбалдиев , ИДЕИ ПАТРИОТИЗМА В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ	19
5	Сардор Эгамбердиев , ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ, СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГОВ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ	23
6	Xolboy Ibragimovich Ibraimov , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	28
7	Ibraimova Feruza Xolboyevna , CREATIVE COMPONENT OF THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS	31
8	Qodirov G'ayrat O'roqboyevich , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISDA EVRISTIK O'QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH	35
9	Малика Хамдамова , ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ БИОЛОГОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «АНАТОМИЯ И ФИЗИОЛОГИЯ ЧЕЛОВЕКА» В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА	39
10	Otajonova Manzura Omanboyevna , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI	43
11	Doniyorova Shahnoza Erkinovna , TALABALARNING ART-DIZAYNGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR	48
12	Azimova Ziyoda Erkinovna, Otaboeva Zulfya G'ofurovna , TALABALAR JAMOASIDA HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH	52
13	Jamoliddin Fozilov , QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILARDA OB'JEKTIV DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH	55
14	Vahobjon Rajapov , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'SMIR QIZLAR TARBIIYASINI MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA AMALGA OSHIRISHGA TAYYORLASH PRINSIPLARI	59
15	Jaxongir Begijonov , BADIY KULOLCHILIK MASHG'ULOTLARIDA TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI	63
16	Nuriddin Ruziyev , BO'LAJAK AMALIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARIGA OID QADIRYATLARINI SHAKLLANTIRISH	65
17	Nasiba Sabirova , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI	70
18	Nilufar Jalilova , DIDAKTIK QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA OLIY PEDAGOGIK TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY IMKONIYATLARI	76
19	Dilrabo Malikova , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI ERTAKLARDAN FOYDALANGAN HOLDA O'QUVCHILARNING MADANIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH	80
20	Dilfuza Xolbo'tayeva , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA YUQORI MALAKALI, ZAMONAVIY PEDAGOGIYALARNI MADANIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH	83
21	Aminjon Amrullayevich Axmedov , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVLARI ASOSIDA TALABALARDA OILAVIY QADRIYATLARGA JOBIY MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH	86
22	Feruza Damirovna Qodirova , BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING LEDIRLI SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH	89
23	Lobar Xaydarova , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARDA AXLOQIY VA ESTETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	92
24	M.Raxmanova , O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	95
25	Мусабек Сатыбалдиев, Шамир Мондошов , ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ А. Н. ОСТРОВСКОГО В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ КЫРГЫЗСТАНЦЕВ	99
26	Ozodbek Mo'ydinov, Odinaxon Madaminova , OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBALARINING AHAMIYATI	103
27	Nozira Musinova , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNI MA'NAVIY TARBIIYALARSHDA MILLIY QADRIYATLARINING O'RNI	106
28	G. Eshonova , TALABA YOSHLARNING AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ISLOMIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	108
29	Sindorjon Ashurov, Avazkhon Azamjonov , FOSTERING INCLUSIVITY IN HIGHER EDUCATION: ADDRESSING CURRICULUM GAPS	112
30	A.Musayeva , MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA TALABA-YOSHLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	115
31	Saxob Karimov , UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING O'QUVCHILARDA MUSIQA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVINING IMKONIYATLARI	118
32	Lobarxon Qaraxonova , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA LOYIHALASH USULIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	122
33	Abdulxalim Maxmudov , RAQAMLI MUXITDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	126
34	Muxayyo Umaraliyeva , BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA KASBIY - MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TAMOIYLLARI	129
35	Шахрибону Ёзиева , УНИВЕРСИТЕТ АЛЬ-АЗХАР В ЕГИПТЕ: ИСТОРИЯ, ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ	132
36	Elmira Kenesbayeva , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MODULLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASH	136